

DINNING PAYDO BO'LISHI VA RIVOJLANISHI, UNING IJTIMOY MUHITGA TA'SIRI

Sayfutdinova Yorqinoy Yasharbek qizi

Abdusamadova Gulsanam Bahodir qizi

ADPI Biologiya yo'nalishi 201-guruh talabalari

Ahmedova Dildora Naildjan qizi

Ilmiy rahbar

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14293131>

Annotatsiya. Maqolada dinning tarixiy rivojlanishi va uning jamiyat hayotidagi o'rni yoritiladi. U diniy e'tiqodlarning madaniyat, axloq va qonunchilikka ta'sirini tushuntiradi. Shuningdek, dinning jamiyatni birlashtirishdagi roli va ba'zan ziddiyatlarga sabab bo'lishi ham tahlil qilinadi.

Abstract: The article highlights the historical development of religion and its role in social life. It explains the influence of religious beliefs on culture, morality, and legislation. Additionally, it analyzes the role of religion in uniting society and its potential to cause conflicts at times.

Аннотация: В статье освещается историческое развитие религии и её роль в общественной жизни. Объясняется влияние религиозных убеждений на культуру, мораль и законодательство. Кроме того, анализируется роль религии в объединении общества и её способность иногда становиться причиной конфликтов.

Kalit so'zlar: Din, tarixiy rivojlanish, ijtimoiy muhit, axloq, madaniyat, qonunchilik, birdamlik, konflikt, diniy e'tiqod, jamiyat.

Keywords: Religion, historical development, social environment, morality, culture, legislation, unity, conflict, religious belief, society.

Ключевые слова: Религия, историческое развитие, социальная среда, мораль, культура, законодательство, единство, конфликт, религиозные убеждения, общество.

Din insoniyat tarixining eng qadimiy va muhim hodisalaridan biridir. Dinning paydo bo'lishi tabiiy muhit, insoniyat tafakkuri va madaniy rivojlanish jarayonlari bilan uzviy bog'liq. Hozirda Yevropa dunyoqarashi dinga ikkinchi darajali masala sifatida qarasada uni jamiyat tizimidan butunlay chiqarib yubora olmadi. Ilohiy ta'limotlarga asoslanadigan bo'lsak ma'lum dinga, yoki ruhiy quvvatga ishonch insonning fitratiga qo'shib yaratilgan. Shunday ekan, ya'ni dinga e'tiqod qilib yashash real haqiqat ekanini e'tirof etgan holda uni xolis o'rganish va tadrijiy rivojini hisobga olgan holda tadqiq etish davr talabi sifatida qaralmogi kerak. Din tushunchasiga olimlar duyoviylik, ilmiylik nuqtainazaridan, din arboblari esa muayyan diniy talimot asosida yondashishlari bois ushbu tushunchga turli tariflar beriladi. Din asli nima ekanligi turlicha izohlansa-da, umumiy nuqtai nazar shuki, din ishonmoq tuyg'usidir. Ishonmoq tuyg'usi insoniyatning eng teran va ruhiy-ma'naviy ehtiyojlaridandir. U dastlabki diniy tasavvurlarning paydo bo'lishidan urug-qabila, milliy va jahon dinlari paydo bo'lgan davrda yuz bergan jarayonni hamda jamiyat taraqqiyotida din bilan bogliq bo'lgan barcha ijtimoiy, hodisalarni, ma'naviy omillarni - mafkura va aqidalar, urf-odat va marosimlar, diniy tashkilotlarning talab va tartiblarini o'rganish, taxlil qilishni ko'zda tutadi. Din insonning ruhiy dunyosi bilan chambarchas bogliq bo'lib, uning ijtimoiy hayotida doimo u bilan birga bo'ldi. Shuning uchun ham dinni o'rganish – bu insoniyatni o'rganish demakdir. Din insoniyatdan,

insoniyatni dindand ajratib bo'lmashligini tarixning o'zi isbotladi. «Kommunistik jamiyatda din yo'q bo'lib ketadi» deyilgan gapning aksicha kommunizm xayoliy narsa-yu, din doimiy ekanligi amalda isbotlandi. Demak, din insoniyat bilan birga dunyoga kelgan. Dinlarni o'rganish uzoq tarixga ega. Har bir inson yon-atrofidagilarning e'tiqodi, qaysi dinga mansubligiga qiziqadi, ular haqida bilishni istaydi. Bu boradagi ilk ma'lumotlarni Qadimgi Gresiya va Rim yozuvchilari asarlarida ko'rishimiz mumkin. Ulardan eng mashhuri «tarix otasi» nomini olgan Gerodot (mil. avv. V asr) o'zi tadqiq qilgan xalqlarning dinlari haqida ma'lumotlar keltirgan. Unda dinning tarkibiy qismlari quydagilardan iborat:

- diniy talimot: mazkur din bilan bogliq aqidaviy qarashlar tizimi;
- xudo: ilohiy ong va qudrat sohibi bolgan ongli mavjudot;
- ibodat: mazkur din korsatmalariga muvofiq amalga oshiriladigan marosim, rasm-rusum, udumlar majmui;
- diniy jamoa: (masjid, cherkov yoki ibodatxona qavmi): mazkur dinga etiqod qiluvchlarni birlashtiruvchi ijtimoiy institute;
- axloq meyorlari: mazkur din talimotlarida muqaddaslashtirilgan ijtimoiy munosabat qoidalari.

Din-ijtimoiy xayotning murakkab va ko'pqirrali sohalaridan biri bo'lib, insoniyat tafakkurining ajralmas bir bo'lagi hamdir. Dinni tadqiqi etish uch yo'nalishda olib boriladi. Bular: 1) ilohiyot (teologiyaga oid); 2) falsafiy yo'nalishga oid; 3) ilmiy qarashlarga oid. Din tabiat, jamiyat, inson va uning ongi, yashashdan maqsadi hamda taqdiri insoniyatning bevosita qurshab olgan atrof-muhitdan tashqarida bo'lgan, uni yaratgan, ayni zamonda insonlarga to'g'ri, haqiqiy, odil hayot yo'lini ko'rsatadigan va o'rgatadigan ilohiy qudratga ishonch va ishonishni ifoda etadigan maslak, qarash, ta'limotdir. Din muayyan ta'limotlar, his-tuyg'ular, toat-ibodatlar va diniy tashkilotlarning faoliyatlari orqali namoyon bo'ladi. U olam, hayot yaratilishini tasavvur qilishning alohida tariqasi, uni idrok etish usuli, olamda insoniyat paydo bo'lgandan to bizgacha o'tgan davrlarni ilohiy tasavvurda aks etishidir. Din komil insonni tarbiyalashda asosiy tarbiyalovchi qudratga ega bo'lgan ma'naviy-axloqiy kuchdir. Din tushunchasiga olimlar dunyoviylik, ilmiylik nuqtai nazaridan, din arboblari esa muayyan diniy ta'limot asosida yondashishlari bois ushbu tushunchaga turli ta'riflar berilgan. Umumiy tarzda, din, (arabcha – e'tiqod, ishonch, lotincha “religio” – diyonat, siginish, “relegere” ortga qaytish, “religare” – boglamoq) ijtimoiy ong shakllaridan biri hisoblanadi. U quyidagi bosqichlarda rivojlangan: 1. Qadimiy dinlar: Insoniyatning ilk bosqichlarida din tabiat hodisalari bilan bog'liq bo'lgan. Bu davrda odamlar yashin, yomg'ir, quyosh kabi hodisalarga sig'inishgan (animizm). Keyinchalik totemizm, fetishizm va boshqa ibtidoiy e'tiqodlar shakllangan. 2. Politeizm (ko'pxudolik): Odamlar turli hodisalar va mavhum kuchlarni xudolar sifatida tasavvur qila boshladilar. Qadimgi Misr, Hindiston, Yunoniston va Rim madaniyatlarida ko'pxudolik tizimlari keng tarqalgan edi. 3. Monoteizm (yakkaxudolik): Dinning rivojlanishining yangi bosqichi yagona Xudoga ishonchni ilgari surdi. Bu davrda yahudiylik, xristianlik va islom kabi dinlar paydo bo'ldi. Ushbu dinlar insoniyat madaniy va ijtimoiy hayotida katta o'zgarishlarni keltirib chiqardi. 4. Zamonaviy dinlar va ma'naviy oqimlar: Bugungi kunda din faqat an'anaviy e'tiqod tizimlari bilan cheklanmaydi. Turli yangi diniy harakatlar, sekulyar g'oyalar va ma'naviy oqimlar ham rivojlanmoqda. Islom olamida ham dinlarni o'rganish bo'yicha tadqiqotlar uzoq tarixga borib taqaladi. Milodiy VII-VIII asrlardayoq diniy tortishuv (munozara)larni o'z ichiga olgan «maqola»lar (keyinchalik

«maqolot»), VIII -IX asrlardan e'tiboran esa boshqa dinlarga «raddiya»lar yozila boshlangan. Keyingi asrlardan esa «alFiraq» (Firqalar), «ar-Radd» (Raddiya), «ad-Diyonot» (Dinlar) va «al-Milal» (Xalqlar) yo'nalishidagi adabiyotlar vujudga kelgan. «Ad-Diyonot» (Dinlar) yo'nalishida yozilgan ilk asar Hasan ibn Muso anNavbaxtiyning (vaf. 910 y.) «al-Aro' vad-diyonot» (E'tiqodlar va dinlar) kitobi hisoblanadi. Keyinchalik Mas'udiy (vaf. 957 y.) o'zining «ad-Diyonot» (Dinlar), Masbihiy (vaf. 1029 y.) «Darkul bug'yati fiy vasfid diyonoti val ibodoti» (Dinlar va e'tiqodlar vasfida maqsad me'yori) kitoblarini yozganlar. Shuningdek Beruniyning (vaf. 1048 y.) «Tahqiqun ma lilhind min maqulatin, maqbulatin filaqli av marzulatin» (Aqlga maqbul yoki noma'qul bo'lgan Hindistonga oid izlanishlardan) nomli kitobi ham shular sarasiga kiradi.

Dinning ijtimoiy muhitga ta'siri. Din jamiyat hayotining ko'plab jabhalariga ta'sir ko'rsatadi. Bu ta'sir quyidagi sohalarda namoyon bo'ladi:

1. Axloq va odoq-axloq me'yorlari: Din ko'p hollarda axloqiy qadriyatlarning asosini tashkil etadi. Masalan, halollik, adolat, yaxshilik qilish, zo'ravonlikdan voz kechish kabi tamoyillar diniy o'gitlar bilan mustahkamlanadi.
2. Madaniyat va san'at: Din musiqadan tortib, me'morchilikka qadar ko'plab sohalarda ijodkorlikni ilhomlantirgan. Masalan, masjidlar, ibodatxonalar, ikonalar va diniy musiqalar bunga misoldir.
3. Qonunchilik va davlat boshqaruvi: Ko'plab qadimiy va zamonaviy qonunlar diniy normalar asosida shakllangan. Islom huquqi (shariat) yoki yahudiylikdagi Talmud qonunlari bunga misoldir.
4. Jamiyatdagi ijtimoiy birdamlik: Din odatda jamoalarni birlashtiradi va ular orasida birdamlikni mustahkamlaydi. Masalan, diniy bayramlar, ibodatlar yoki ziyoratlar insonlarni yaqinlashtiradi.
5. Nizo va konfliktlar: Dinning ijobiy tomonlari bilan bir qatorda, ba'zida diniy qarashlar ziddiyati nizolar va ijtimoiy keskinliklarga olib kelishi mumkin. Tarixda din asosidagi urushlar bunga misol bo'la oladi.

References:

1. Muratov D., Alimova M., Karimov J. Dinshunoslik, darslik. Toshkent, «Navro'z» nashriyoti, 2019. – 264 b.
2. Raximdjanyov D., Ernazarov O. Dinshunoslikka kirish. O'quv qo'llanma. – T.: «O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2018. – 304 b.
3. Rahimjonov.D., IsmatovaN., Xudayberganova.G., Alidjanova.N., Ernazarov.O. Davlat va din. O'quv qo'llanma - Toshkent: Somplex Print, 2019. - 136 b.
4. Agzamxodjayev S., Rahimjonov D., Muhamedov N., Najmiddinov J. Dunyo dinlari tarixi (o'quv qo'llanma). - T.: «Toshkent islom universiteti nashriyot-matbaa birlashmasi», 2011.